
“Xonadonbay” ishlash tizimi: aholi muammolari o’rganilmoqda

Ma’lumki, joylarda “mahallabay” ishlash tizimi orqali aholining real muammolarini aniqlash, ularni ijobiy hal qilish, aholi ijtimoiy tashabbuslarini qo’llab-quvvatlash, tadbirkorlik bilan shug’ullanish istagida bo’lganlarga qulay shart-sharoit yaratish hamda aholi ehtiyojlariga ko’ra infrtuzilmani yaxshilashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Shu maqsadda Rishton tumanidagi mavjud 71 ta mahalla fuqarolar yig’inlarida “beshlik” jamoasi to’liq tarkibda aholi xonadonlarida bo’lib, ularning muammolarini o’rganilib, har bir xonadonga alohida yondashuv asosida samimiy suhbat o’tkazilmoqda.

Xonadonning ijtimoiy iqtisodiy holati, bandlik darajasi, yoshlar balansini shakllantirish, xotin-qizlar masalalari hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish bo’yicha amalga oshirilayotgan ishlar va oldinda turgan vazifalar bo’yicha olib borilgan suhbatlar davomida rejalar belgilanib, ijrosiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Xatlov jarayonlari barcha mahallalar bo’yicha davom ettirilmoqda.

Rishton tumani hokimligi

Axborot xizmati.

2023-01-05 08:53:59